

***Yusupbayeva Lobar,***

*Nukus davlat pedagogika instituti*

*Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi*

*1-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada til ta'limida innovatsion texnologiyalardan foydalanishda dars samaradorligini oshirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya shakllari, metodlari va usullariga yangicha yondashish haqidagi fikrlar ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** Innovatsion texnologiya, interfaol usullar, xorijiy tajribalar, ta'lim, metod.

Hozirgi kunda ta'lim yangi bosqichga ko'tarilib, o'quvchilar fikr darajasi kengaymoqda, bunday o'sish jarayonida o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanmaslik darsning samaradorligiga ta'sir etishi shubhasiz, zero ta'lim tizimida qo'llanilayotgan innovatsion texnologiya va metodlar o'quvchilarning yuksak bilim cho'qqilarni egallab, ularni fikrlashga, o'z shaxsiy va mustaqil qarashlarga ega bo'lishda katta ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun ham bugungi kunda ta'lim-tarbiya tizimida kompyuter va axborot texnologiyalarning zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanishga alohida e'tibor berilmoqda. Bu esa ta'lim jarayonida o'quvchilarga turli fanlardan bilim beruvchi pedagog kadrlarni axborot texnologiyalarning zamonaviy vositalaridan foydalanishda, eng avvalo bu sohadagi bilim va malaka darajalarini oshirish va dars o'tishidan oldin darsda qo'llaydigan innovatsion texnologiyalarning har bir elementigacha puxta o'rGANISHINI tadqiq qilishi lozim.

"Innovatsiya" (inglizcha) yangilik kiritish, yangilik degan ma'noni ifodalaydi.

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

“Texnologiya” so‘zi esa yunoncha “texnos” – san’at , mahorat va “logos” – fan so‘zlaridan olinib innovatsion texnologiya ta’lim-tarbiya shakllari , metodlari va usullariga yangicha yondoshish degan ma’noni bildiradi.

Til ta’limida innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatiga yangilik kiritishdir. O‘qituvchi innovatsion texnologiyaga asoslanib darslarni tashkil etar ekan, turli texnik vositalardan (kompyuter, elektron doska, proyektor va hokazo) ham foydalanishi mumkin. O‘qituvchining faoliyatida innovatsiyalar qancha ko‘p bo‘lsa, mazmun shunchalik oshadi.

“Faoliyatni yangilash 3 bosqichda, ya’ni tayyorgarlik, rejalashtirish va joriy etish bosqichlarda amalga oshiriladi” degan edi mashhur pedagog A.Nikolskaya. Har bir o‘qituvchi ta’limga individual tarzda yangilik kiritishi mumkin. Innovatsion texnologiyadan foydalanishda o‘qituvchiga quyidagi bilimlarni bilish taqazo etiladi:

- bilim, ko‘nikma va malakaga ega bo‘lish;
- xorijiy tajribalardan xabardor bo‘lish;
- ta’lim jarayoni tashkil qilishda didaktik o‘yinlardan, interfaol metodlardan foydalanish mahorati;
- ilg‘or pedagogik texnologiya bo‘yicha bilimlarni o‘zlashtirishi;
- o‘z ustida tinmay ishlashi, har sohaga oid yangiliklarni kuzatib borish va boshqalar.

Til o‘qitish metodikasini rivojlantirish, bunda xorij tajribalaridan o‘rinli foydalanish masalasi kun tartibida turibdi.

Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov: “...o‘zbek tilini ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish milliy o‘zlikni, Vatan tuyg‘usini anglashdek ezgu maqsadlarga xizmat qilishi shubhasizdir”[1] – deb bejiz ta’kidlamagan edi. Bu borada ona tili fanining imkoniyatlari benihoyadir. O‘qituvchisi o‘qitish jarayoniga yangi ta’lim texnologiyalarini kiritib, “noan’anaviy ta’lim usullaridan: “O‘yinchoqlar yordamida dars o‘tish”, “Kasbga bog‘lab dars “o‘tish”, “Badiiy adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish”, “Evrika” (O‘ylab top); ta’limning qiziqarli

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

faol usullaridan: “Kichik va katta guruhlarda ishlash”, “Rolli o‘yinlar”, “Sahna ko‘rinishi”, “Krossvordlar yechish”, “Zakovat savollari”, “Test-sinov” topshiriqlari, “Sinkveyn o‘yinlari”; shuningdek, ta’limning innovatsion (yangi) usullari: “Modifikatsiyalashgan ta’lim”, “Improvizatsiya”, “Aqliy hujum”, “Debat”, “Taqidiy tafakkurni rivojlantiruvchi usul”, “Klaster usuli”, “Muammoli vaziyat”, “Muayyan holat, vaziyatni o‘rganish, tahlil qilish”, “Har kim har kimga o‘rgatadi”, “Nuqtayi nazaring bo‘lsin”, “Multimediya” va boshqalarni qo‘llashi muhimdir”[2]. Ona tili fani mazmunini takomillashtirish uchun texnologiyaning ilg‘or usullariga tayanib ish ko‘rish vositasidagina ta’lim samaradorligiga erishish mumkin. E.I.Imomov, K.Shodiyevalar dars paytida yaxshi tashkil etiladigan o‘yin usullari mavzuning maqsad va mazmunini kengroq ochishga, materiallarning puxta o‘rganilishiga, eng muhimi, o‘quvchilarning uzoqroq vaqt yodida qolishiga ko‘maklashadi, deb hisoblashadi[3]. Metodist o‘qituvchi N.Yo‘ldosheva ona tili darslarida topishmoqli o‘yin va boshqotirmalardan foydalanish yaxshi samara berishini, shuningdek, ma’nodosh so‘zlar mavzusini mustahkamlashda harakatli o‘yinlardan ham foydalanish o‘quvchilarni topqirlilikka, hozirjavoblikka va fikrlashga o‘rgatishini misollar bilan isbotlagan[4]. E.Madolimov esa o‘quvchilar savodxonligini oshirish, nutqini o‘stirish, aqliy qobiliyatini rivojlantirish, mantiqiy fikrlashini takomillashtirish hamda ta’lim tizimlari orasidagi uzviylikni ta’minlashda taqqoslash usulidan foydalanish uchun zamin bo‘lishini uqtiradi.

O‘yin usulidan foydalanish ona tili darslarida ham qo‘l keluvchi metod ekanligini R.Tolipovaning rus guruhlarida o‘zbek tilini o‘qitish borasidagi tajribalari, umumlashmalari va xulosalaridan ham ko‘rish mumkin[5]. A.Bobomurodova esa o‘z tadqiqotida ta’limni noan’anaviy o‘yin-topshiriqlarni amalga oshirish tufayli o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda to‘g‘ri, ravon ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga bo‘ysundirish yo‘l-yo‘riqlarini asoslab bergan[6]. Jumladan, “So‘zni o‘z uyasiga joylashtir”, “Olgish olgan omondir, qarg‘ish olgan yomondir”, “Topqirlar bellashuvi”, “Nimaga o‘xshaydi?”, “Erkala va koyi” singari o‘yinlarning tashkil etilishi, olib borilishi va ahamiyati chuqr yoritib berilganligini

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

ko‘rish mumkin. Biz sanab o‘tgan tadqiqotlarning hammasida ham ona tili ta’limi sifatini yuksaltirish, uni jahon andazalariga yaqinlashtirish ko‘zda tutilgan bo‘lsada, o‘quvchi va o‘qituvchi vaqtini iqtisod qilish nazarda tutiladigan bir jihat, ya’ni darsliklarda ilovalar berish masalasi nazardan chetda qolmoqda. Til ta’limida qo‘llanilayotgan xorijiy tajribalar modulli tizim, case study, masofali o‘qitish, mahorat darslari, vebinar kabi yangi texnologiya va metodlar bilan boyimoqda. D.Shodmonqulovaning “Ona tili ta’limida keys texnologiyasidan foydalanish”[7], X.Muhitdinovaning ”Til ta’limida videomatnlar qanday uyg‘unlashadi”[8] kabi maqolalari til o‘rgatishning ilg‘or tajribalarini o‘zbek tili ta’limiga tatbiq qilishning nazariy va amaliy masalalariga bag‘ishlangan.

Xorij tajribalari natijasida til ta’limiga tatbiq qilinayotgan ta’lim texnologiyalari o‘quvchi-darslik-o‘qituvchi faoliyatini yuzaga chiqarishga xizmat qilmoqda. Jamiyatning axborotlashuvi davrida ustuvorlik o‘qishga o‘rgatishga yo‘naltirilganligi bois o‘qitishning metodlari, texnologiyalarini shunday tanlashi zarurki, o‘qituvchi o‘quvchilarga nafaqat tayyor bilimlarni o‘zlashtirishlarida, balki bilimlarni turli manbalardan izlash, mustaqil egallashlarida o‘rgatuvchiga aylanadi. Bunda modulli o‘qitish imkoniyatlaridan foydalanish, uning o‘ziga xos xusuiyatlarini o‘rganish alohida ahamiyatga ega. Chunki pedagogikada e’tirof etilayotganidek, modulli o‘qitish ta’limning quyidagi zamonaviy masalalarini har tomonlama yechish imkoniyatini yaratadi.

Demak, darslarni innovatsion texnologiyalar asosida tashkil qilish ta’limning samaradorligini oshiradi. Hozirgi zamonaviy metodlar yoki o‘qitishning samarasini oshirishga yordam beruvchi texnologik darslar o‘quvchilarda mantiqiy, aqliy, ijobiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga , ijobiy fazilatlarni tarbiyalashga va ularning qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, Ma’naviyat, 2008. – B. 87.

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

2. İbragimova M., Shermatova H. Ta'lim jarayonida faol usullarni qo'llash. Uzluksiz ta'lim.- T.: 2005. 5-son, - 16-17 b.
3. Imomova E., Shodieva K. Darsda qo'llaniladigan o'yinlar // Xalq ta'limi. - 1990. -№ 2. -B. 46.
4. Yo'ldosheva N. Ona tili darslarida o'yin va boshqotirmalardan foydalanish // Xalq ta'limi. -1991. -№ 3. -B. 42-45.
5. Tolipova R. O'zbek tilini o'rganishda o'yin usullari. //Til va adabiyot ta'limi. - 1993.-№4. -B. 34-35.
6. Bobomurodova A. Ona tili ta'limi jarayonida o'yin-topiriplardan foydalanish: ped. fan. nomz. diss avtoref. –T.: 1997. –B.10-11
7. Shodmonqulova D. Ona tili ta'limida keys texnologiyasidan foydalanish //Til va adabiyot ta'limi. -2015. -№5. –B. 17.
8. Muhitdinova X. Til ta'limida videomatnlar qanday uyg'unlashadi. //Til va adabiyot ta'limi. -2015. -№8. –B. 15.